

HUDUDIY SANOAT IXTISOSLASHUVINING O'ZBEKISTONDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Niyazov Muzaffar Abdusattarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Davlat va korporativ strategiyalari kafedrası
katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15812038>

Annotatsiya: Tezida O'zbekiston sanoatining hududiy ixtisoslashuvi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — lokatsion koeffitsient (LQ) va Herfindahl-Hirschman indeksleri yordamida respublika viloyatlaridagi ustun ixtisoslashgan, diversifikatsiyalashgan va past potentsialga ega tarmoqlarni aniqlash hamda sanoat klasterlari o'rtasida integratsion hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: sanoat ixtisoslashuvi, hududiy klaster, Location Quotient, diversifikatsiya, Uzbekistan, regional industrial development.

O'zbekiston korxonalari 2025 yil yanvar–may oylarida 375 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqardi; real o'sish indeksi 106,4 %ni tashkil etdi Biroq ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti bir xilda emas: Navoi, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ulushi 56 %ni, ayrim janubiy va g'arbiy hududlar ulushi esa 5 %dan kamini tashkil etadi[1]. Bu tafovut sanoat ixtisoslashuvi va hududiy raqobatbardoshlik masalasini dolzarb qiladi.

O'zbekiston sanoatining mintaqaviy tarkibi oxirgi yillarda keskin o'zgarishlarga uchramoqda. Ayni paytda mamlakatda hududlararo iqtisodiy tafovutlar, tarmoqlar bo'yicha konsentratsiyaning yuqoriligi va ixtisoslashuv darajasining nomutanosibliigi sanoat siyosatini hududiy rejalashtirish bilan uyg'unlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Prezident farmon va qarorlarida (PF-4853, PQ-3175, PF-5992 va b.) belgilangan erkin iqtisodiy zonalar, mahalliyashtirish siyosati, klasterlash va texnoparklar yaratish jarayonlari aynan ushbu muammoning yechimi sifatida taklif qilinmoqda[2]. Biroq bu chora-tadbirlarning amaliy natijasi hududlar kesimida qanchalik samarali bo'layotgani hali yetarli ilmiy tahlilga ega emas. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatini kengaytirib, soliq-bojxona imtiyozlari yaratildi va bank tizimi islohotida klaster va EIZ rezidentlariga imtiyozli kredit liniyalari ajratilishini nazarda tutildi. Kudratov Z.G. EIZni regional ixtisoslashuvning asosiy mexanizmi sifatida nazariy model taklif qilgan[3]. Babadjanov J. & Petrick M. (2023) paxta-to'qimachilik klasterlarining samaradorligini empirik o'rgangan[4].

2023–2025 yillar statistikasi asosida sanoat tarmoqlarining hududlar bo'yicha LQ va HHI orqali baholash:

Har bir viloyat qaysi tarmoqqa ixtisoslashgani yoki ixtisoslashmaganini aniqlash orqali hududlararo iqtisodiy tengsizlik, markazlashuv (metropolitan dominance) va "iqtisodiy turg'unlik zonalarini"ni aniqlash mumkin.

LQ (Location Quotient): bu ko'rsatkich ma'lum bir hududda tarmoqning mamlakat bo'yicha nisbiy ulushini ifodalaydi.

$LQ > 1,2 \rightarrow$ hudud mazkur tarmoqqa ixtisoslashgan;

$LQ \approx 1 \rightarrow$ o'rtacha ko'rsatkich;

$LQ < 0,8 \rightarrow$ ixtisoslashmagan yoki zaif.

HHI (Herfindahl-Hirschman Index): sanoat tarkibining diversifikatsiyalashgan yoki konsentratsiyalashgan darajasini aniqlaydi.

$HHI > 0,25 \rightarrow$ yuqori konsentratsiya;

$HHI < 0,15 \rightarrow$ diversifikatsiyalashgan tarmoq.

Tarmoqlar va hududlar bo'yicha matritsa tuzilib, sanoat siyosatining differensiallashtirilgan (yo'naltirilgan) yondashuvi ishlab chiqiladi.

1-jadval

Hududlarning LQ va HHI bahosi

Hudud	Dominant tarmoq	LQ	HHI	Status
Navoi	ruda-oltin metallurgiya	3.5	0.32	Monoklaster
Andijon	to'qimachilik, avtomobilsozlik	2.8	0.28	ixtisoslashgan
Toshkent sh.	mashinasozlik, farmatsevtika	1.9	0.12	diversifikatsiya
Surxondaryo	oziq-ovqat, qurilish materiallari	0.72	0.22	past potensial
Jizzax	qurilish-agro	0.67	0.25	past potensial

Navoi viloyati (ruda-oltin metallurgiyasi) – $LQ = 3,5$, $HHI = 0,32 \rightarrow$ yuqori konsentratsiya

Andijon (to'qimachilik-avtomobilsozlik) – $LQ = 2,8$, $HHI = 0,28 \rightarrow$ ixtisoslashgan

Toshkent sh. (mashinasozlik-farmatsevtika) – $LQ = 1,9$, $HHI = 0,12 \rightarrow$ diversifikatsiyalashgan

Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax – $LQ < 0,8 \rightarrow$ past potensialli zonalar

Sanoat hajmi o'sishi miqyosi yirik hududlarda tabiiy ko'rinishi mumkin. Ammo bu haqiqiy samaradorlikni (aholi boshiga nisbatan) ko'rsatmaydi. Shu sababli per capita tahlil muhim.

Har bir viloyat uchun jon boshiga sanoat mahsuloti (mln so'm/aholi) hisoblanadi.

Yillik o'sish sur'atlari (2025/2024) aniqlanadi.

K-means yoki PCA asosida hududlar 3 guruhga ajratiladi:

Yuqori samara, yuqori o'sish;

Yuqori samara, past o'sish;

Past samara, o'sish yuqori.

Resursga nisbatan ortiqcha yuklangan yoki potentsiali yetarlicha safarbar etilmagan hududlar aniqlanadi. Bu esa strategik resurs taqsimotini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sanoatining hududiy ixtisoslashuvi 2023–2025 yillar tahliliga ko'ra, chuqur asimmetriyaga ega ekani tasdiqlandi. Ayrim hududlarda (Navoi, Andijon, Toshkent shahri) yuqori konsentratsiyalashgan tarmoqlar mavjud bo'lib, ular sanoat hajmining katta qismini ta'minlaydi. Biroq boshqa viloyatlarda (Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo) ixtisoslashuv darajasi past, mavjud resurslar to'liq safarbar etilmagan. Bu esa mamlakat sanoat siyosatida muvozanatsizlik, samaradorlikning nisbiy pastligi va mintaqalararo iqtisodiy tafovutlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Tahlil uchun qo'llanilgan LQ va HHI ko'rsatkichlari har bir hududning sanoatga ixtisoslashuv darajasi va tarmoqlarning diversifikatsiyalashganligini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, per capita ishlab chiqarish va yillik o'sish sur'atlarining taqqoslanishi resurslarning noto'g'ri taqsimlanganini, ayrim hududlar haddan tashqari yuklanganini ko'rsatdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.10.2016 yildagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.2017 yildagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari"gi PQ-3175-sonli Qarori.
3. Kudratov Z.G., Toshboev B.B., Yuldoshev Sh.T. (2014). "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari". – TDIU ilmiy jurnali, №4.
4. Babadjanov J., Petrick M. (2023). *Cotton clusters and industrial policy in Uzbekistan: empirical evidence and institutional challenges*. – Eurasian Geography and Economics, Vol. 64, Issue 2.
5. Milliy statistika qo'mitasi. "Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2023–2025)". – www.stat.uz (2025-yil holatiga ko'ra).
6. UNIDO (United Nations Industrial Development Organization). Industrial Competitiveness Index – Uzbekistan Country Profile, 2024.